

OILA TARBIYASIDA FITRATNING QARASHLARI

Muqaddasxon Sodiqova

Andijon davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya va huquq yonalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatdagi axloqiy tarbiya, bolalarni tarbiyalash kabi masalalar haqida bayon qilingan. Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, oila mustahkamligi, bola tarbiyasida ota-onaning o'z haqida fikr-mulohazalar bildirilgan

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, axloqiy tarbiya, ma'rifat, bola huquqi, sog'lom fikr, xulq

Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug'lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb bilganlar. Milliy taraqqiyotga yuz tutgan mustaqil yurtim izda komil insonni tarbiyalash va huquqiy davlatchilik asoslariga poydevor qurish davrida Inson muhabbatdan tug'ilgan, oiladagi ilk onalik mehri va otalik muhabbati bilan yo'rgaklangan. Go'dakning insoniy sifatleri kamol topishida ham mana shu mehr-muhabbat tarbiya maskani hisoblanadi. Binobarin, nikohdan birinchi maqsad ham naslning davomiyligidir. Fitrat qarashlarining zahirida islomiy oila mohiyatini anglatish yotgani uchun oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va porsolig'i (diyonati) bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan anglatadi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalar asosan uning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida berilgan. Oila asradagi axloqiylik va milliy o'zlikni anglash masalalari barcha yoshlarni ilm ma'rifatga va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Oila asarida ham tanqidiy ham da'vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonini ozod ko'rishni istaydi buning uchun esa har bir turkistonlik odob-axloq va erk o'chog'i bo'lishi lozim edi. Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi uqtiradi - bunda:

- 1) jismoniy tarbiya –salomatlik;
- 2) aqliy tarbiya -sog'lom fikrlilik;
- 3) axloqiy tarbiya -axloqi sano;

ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Oilaning asosiy vazifasi yosh avlodni tarbiyalashdir. Bolalar axloqiy tarbiyasida avvalo o'zi yashayotgan atrof-muhit muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olim ijtimoiy muhitning bola tarbiyasidagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatib beradi. U bolalarni suvga o'xshatadi: "Suv qaysi rangli idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundaki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolini o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar". Bu fikrlari bilan aytmoqchimiz bola

tarbiyasida faqatgina maktab emas balki avvalo oila va jamoatchilik shug'ullanishi to'g'risida va oilada axloq tarbiyasi doirasida ota-onaning o'zni beqiyos ekanligi haqida aytib o'tgan.

Fitrat axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasiga emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmasliklarini juda to'g'ri harakat deb biladi. Yana u bolalar axloqiga zararli bo'lgan, yoshiga mos kelmaydigan kitoblarni bolalarning o'qishlariga ruxsat bermaslik kerak deydi. Chunki o'zi ta'kidlaganidek har qanday axloqida nuqsonlari bor inson o'z-o'zidan bola psixikasiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin, shuning uchun iloji boricha unday insonlarni ta'lim dargohidan uzoqroqda tutishi kerak. Va faqatgina uzoqda tutish bilan ish bitmaydi bunday tarbiyasida kamchiligi bor insonlar o'z ustida ishlashlari va o'zlarini taftish qilishi uchun imkoniyat yaratish kerak.


Fitrat o'z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shavqatli bo'lish, o'z manfaatlaridan xalq manfaatini yuqoriqo'yish g'oyalarini ulug'laydi. U o'zining "Hind sayyohi", "Rahbari najot" singari asarlari orqali ma'rifatparvar va yozuvchi sifatida musulmonlarni, eng avvalo yoshlarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, eng muhimi, o'zligini tanishga, fan-texnikani rivojlantirish uchun g'ayrat bilan o'qish o'rganishga undaydi.

Fitrat bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishi, bolaga qiyinlik qilmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yo juda qiyinlik qilsa u bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi. Fitratning "Oila" asari yosh avlod uchun qo'llanma bo'luvchi hayotiy tarbiyaviy asardir. Ushbu asarda pedagogik-didaktik uslubdan ham mahorat bilan foydalanilgan.

Turkistonni va turkistonliklarni ozod ko'rish va milliy mustaqillik mafkurasi asarning ruhiga singdirilgan, uni o'qigan kishilar nafaqat axloqiy fazilatlar va ularga qanday erishish kerakligini, milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qilib qo'lga kiritish mumkinligini anglatuvchi adibning qalbidagi so'zlarni qalban his qildiruvchui tarbiyaviy asardir. Oila asarida oilaga nisbatan qarashlari zaminini Qur'oni Karimda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar tashkil etadi. Shuning uchun ham bu asar o'z zamonidagi taraqqiyparvar yoshlar uchun iliq kutib olingan va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kun uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Qayerda oila munosabatlari mustahkam va intizomli va kuchli bo'ladigan bo'lsa jamiyat va davlat ham shunday bo'ladi. Mamlakat rivojlanishi uchun avvalo tarbiyani oiladan boshlash kerak, oilada muhit qanday bo'ladigan bo'lsa ushbu muhit jamiyat uchun ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Oila Fitratning talqinida uch muhim komponentdan iborat:

- 1)Er
- 2)Xotin
- 3)Farzandlar

Axloqiy tarbiya kishi axloqini kamolga yetkazish, odamning fe'li va harakatiga yaxshi fazilatlarini singdirish demakdir. Hayot binosini qurishda va uning taraqqiyotida



avlod tarbiyasining rolini ta'kidlar ekan, Fitrat uch narsa: tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloq muhimligini aytib o'tadi. So'ngra esa mana shu tarbiya uchun zarur bo'lgan turli xil vazifalarni jamiyat a'zolari oldiga qo'yish bilan o'z risola-tadqiqotini yakunlaydi. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo'lishlaridan oldin jamoa bo'lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari «oila», ya'ni «ahli bayt» bo'lgan. Ahli bay! jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan. Bu muqaddimadan ma'no shuki, oilaning shakllanishi, ya'ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda, oila boshqarishga asos solish bani Odam adaniyatining asosi ekan. Bizga ma'lumki, odamlar qayerda qavm yoki qabila bo'lib yashasalar, tinchliklarini saqlash uchun va bir-birlarining huquqlarini muhofaza qilish uchun bir nizom (tartib) va qonun joriy etib, shu qonunlar asosida baxt va saodatga erishganlar. Aks holda o'rtalarida tartibsizlik ro'y bergan zahoti nizom -u qoida yo'qolib, darhol nobud bo'ladilar yoki e'tiborsiz va xor bo'ladilar. Aslida bu tabiiy va zarur bir hodisadir, chunki odam tabiatan manfaatparast va g'arazli bo'ladi. Bir nechta odam jam bo'lib qolsa, har biri o'z manfaatlariga asir bo'lib, boshqalarning huquqiga tajovuz qilib uni poymol qilmoqchi bo'ladi. Buning natijasi notinchlik va intizomsizlik bo'lib, oqibati yana o'sha nobudlikdir.

Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy vazifa yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi barchamizga ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahalla-ko'y, umuman, ijtimoiy muhit inson farzandini to hayotining so'nggi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomilida ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

3. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938 sonli Farmoni
7. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013 — 144 b.
8. A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". T., "O'qituvchi". 1994
9. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. "O'qituvchi". 1999
10. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.

